



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATINING QARORI

O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi milliy ma'ruza haqida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi milliy ma'ruza haqidagi axborotini eshitib, 2024-yilda mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muayyan ishlar amalga oshirilganligini qayd etadi.

Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasini yanada takomillashtirishga qaratilgan **8 ta** normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan.

Buning natijasida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlar qonun bilan tartibga solinib, o'tgan davrda **85 581** nafar xodim manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha o'qitilgan, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ygan **362** nafar mansabdor shaxsga nisbatan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirilgan.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasi ishga tushirilib, platformada **11 518** nafar davlat xizmatchisi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining **1 mln 523 ming** tarbiyalanuvchisi, **1 mln 913 ming** maktab o'quvchisi, oliy ta'lim muassasalarining **30 ming** talabasi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitilgan.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatiladigan xizmatlar soni **750** tadan oshgan, xususan, 2024-yilda pensiya tayinlash uchun ariza berish, tibbiy ma'lumotnoma olish (083), kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlash, mehmonxona qurish uchun subsidiya olish, talabalar uchun ta'lim krediti olish va boshqa bir qancha xizmatlar **elektron shaklga** o'tkazilgan.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatini raqamlashtirishga qaratilgan **75 ta** loyiha amaliyotga joriy etilgan.

Davlat buyurtmachilari tomonidan davlat xaridlarining raqobatli tarzda amalga oshirilishi natijasida **13,8 trln** so'm mablag' **tejalgan**.

Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida “**Korrupsiyasiz soha**” loyihasi ishga tushirilib, sohaga oid **79 ta** normativ-huquqiy hujjat korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilgan, **1 605** nafar xodim Huquqni muhofaza qilish akademiyasida o'qitilgan, korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p duch keladigan vazifa va funksiyalar maxsus elektron platformada (e-anticor) baholangan.

Nodavlat notijorat tashkilotlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish mavzularida **1 mlrd 784 mln** so'mlik grant tanlovlari e'lon qilingan, **34** ta seminar-trening tashkil etilib, NNT, OAV, Jamoatchilik kengashlarining **840** nafar vakilining malakasi oshirilgan.

Tadbirkorlik sohasida litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari soddalashtirilib, 2024-yil 1-martdan boshlab **19 ta** hujjat va tartib-taomil bekor qilingan va **3 tasi** xabardor qilish tartibiga o'tkazilgan.

"Aksilkorrupsiya haftaligi" doirasida **110 dan** ortiq tashkilotlarda "Ochiq eshiklar kuni", **334 ta** muassasada davra suhbatlari va treninglar, respublika va xalqaro darajada **3 ta** forum o'tkazilgan, **210 dan** ortiq videoroliklar namoyish etilgan.

Budjet mablag'lari harakati ustidan o'rnatilgan masofaviy monitoring natijasida **554 ta** holatda davlat xaridlari bilan bog'liq **3,1 trln** so'mlik noqonuniy xarajatlarning oldi olingan.

Shuningdek, xorijiy hamkorlar bilan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qiymati **8 mln** AQSh dollariga teng **4 ta** qo'shma loyiha ishga tushirilgan.

Amalga oshirilgan ishlar bilan birga sohada o'z yechimini kutayotgan ayrim muammo va kamchiliklar ham saqlanib qolmoqda.

Jumladan, 2024-yilda respublika bo'yicha sudlar tomonidan **7 354** nafar shaxs korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun jinoiy **javobgarlikka tortilgan.**

Korrupsiyaga oid jinoyatlar oqibatida davlat manfaatlariga **2,8 trln** so'm miqdorida **zarar yetkazilgan.**

Korrupsiyaga oid jinoyat ishlari bo'yicha sudlangan shaxslarning aksariyati maktabgacha va maktab ta'limi, sog'liqni saqlash tashkilotlari, tijorat banklari hamda bandlik sohasi xodimlari hisoblanadi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi bo'yicha **2 350** ta loyihaning **222** tasida yoki **11** foizida **337** ta korrupsiyaviy omil aniqlangan.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish amaliyoti joriy etilganligiga 4 yil bo'lganiga qaramasdan, ayrim vazirlik va idoralar tomonidan loyihalarni ekspertizadan o'tkazilmaslik holatlari mavjud.

Korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilmay kiritilgan eng ko'p loyihalar salmog'i Jizzax viloyati hokimligi (**8 ta**), Investitsiyalar, sanoat va savdo (**6 ta**), Energetika, Qishloq xo'jaligi, Tashqi ishlar (**5 tadan**) vazirliklari hisobiga to'g'ri kelmoqda.

Vazirlik va idoralar tomonidan o'zlariga ajratilgan budjet mablag'laridan **496** mlrd so'm maqsadsiz ortiqcha sarflangan.

Masalan, oliy ta'lim tizimidagi tashkilotlarda ish haqi hamda stipendiya to'lovlari uchun budjet mablag'laridan **45,2** mlrd so'm ortiqcha sarflangan, bandlik tizimida **14** mlrd so'mlik va boshqa sohalarda **1,7** trln so'mlik maqsadsiz va samarasiz xarajatlarga yo'l qo'yilgan.

Davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyati qonunchilikda belgilangan tartibda yo'lga qo'yilmagan.

Xususan, **25** ta Jamoatchilik kengashida NNT vakillari yetarli tarkibda ishtirok etmagan, Jamoatchilik kengashi a'zolari soni 15 nafar bo'lishi belgilangan bo'lib, **3** ta Jamoatchilik kengashida ushbu talabga **rioya qilinmagan**, **7** ta Kengash raisi davlat xizmatchilari orasidan tasdiqlangan.

Masalan, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (**13 nafar**), Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (**11 nafar**) va Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi (**7 nafar**) Jamoatchilik kengashi a'zolari soni 15 nafardan **kam tarkibda** tashkil etilgan.

Sog'liqni saqlash, Energetika, Tashqi ishlar, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirliklari, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Madaniy meros agentligida mazkur tashkilotlar xodimlari Jamoatchilik kengashiga rahbar sifatida **tayinlangan**.

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash natijalariga ko'ra baholashdan o'tkazilgan **102** ta davlat tashkilotidan **8** tasining faoliyati **"qoniqarsiz"** (55 balldan past) baholangan.

Jumladan, G'aznachilik xizmati qo'mitasi (**17 ball**), Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (**26 ball**), "Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi" DM (**28 ball**), "Davlat ekologik ekspertizasi markazi" DM (**48 ball**), "O'zagrolizing" AJ (**53 ball**), Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi (**53 ball**) ilk baholashdan o'tkazilgan bo'lib, faoliyati **qoniqarsiz** baholangan.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini baholash tizimi, ya'ni Ochiqlik indeksi natijasiga ko'ra 2024-yil yakuni bo'yicha baholashdan o'tkazilgan **98** ta davlat organi va tashkilotlaridan **14** tasining faoliyati **"qizil"** (55 balldan past) samaradorlik ko'rsatkichini **qayd etgan**.

Xususan, Farg'ona viloyati hokimligi **54** ball, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ **52** ball, Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi **51** ball, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi **50** ball, Gidrometeorologiya xizmati agentligi **45** ball, Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi **32** ball, Kinematografiya agentligi **30** ball va Andijon viloyati hokimligi **28** ball **"qizil"** toifada baholangan.

Andijon viloyati hokimligi va Kinematografiya agentligi o'tgan yil ham **"qizil"** toifada baholangan.

Ushbu holatlar korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan faoliyatni yanada kuchaytirish borasida tegishli chora-tadbirlar ko'rish zarurligini ko'rsatadi.

Yuqoridagilarga asosan **"Parlament nazorati to'g'risida"**gi Qonunning 8²-moddasi hamda **"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida"**gi Qonunning 25²-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati

Q A R O R Q I L A D I :

1. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi milliy ma'ruza haqidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (A. Burxonov):

vazirlik va idoralar bilan birgalikda eng pastki bo‘g‘inga tushgan holda sohalar kesimida korrupsiyaga sabab bo‘layotgan omillarni aniqlab, ularni bartaraf etish tizimini yo‘lga qo‘ysin;

“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun talablari asosida vazirlik va idoralarda o‘rganishlar o‘tkazib, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yayotgan mansabdor shaxslarning javobgarligini ta‘minlash choralarini ko‘rsin;

muntazam ravishda korrupsiyaga oid jinoyatlarni tahlil qilib, jinoyatlar soni oshib borayotgan sohalarda zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun taqdimnomalar kiritsin hamda natijadorligini Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashida muhokama qilsin;

korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari bo‘yicha huquqiy eksperiment o‘tkazilayotgan Sog‘liqni saqlash, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi, Suv xo‘jaligi vazirliklari, “O‘zbekneftgaz” AJ hamda “O‘zsuvta‘minot” AJda ichki nazorat bo‘linmalari faoliyatini muvofiqlashtirib, monitoring qilsin;

Ochiqlik indeksi natijalariga ko‘ra **“qizil”** toifaga kiritilgan davlat organlari va tashkilotlarida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha o‘z vaqtida taqdimnomalar kiritsin;

korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash natijalariga ko‘ra faoliyat samaradorligi **“qoniqarsiz”** deb topilgan davlat organlari va tashkilotlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va ularning ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilishiga ko‘maklashsin;

amalga oshirilgan ishlar yuzasidan **joriy yilning 10-noyabriga qadar** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga axborot kiritsin.

3. Adliya vazirligi va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi doimiy ravishda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazilishini monitoring qilib, bu borada qonun buzilishiga yo‘l qo‘yayotgan tashkilotlarga taqdimnoma kiritsin.

4. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasi, Sog‘liqni saqlash, Energetika, Tashqi ishlar, Kambag‘allik va bandlik vazirliklari, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Madaniy meros agentligi bir oy muddatda Jamoatchilik kengashlari faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi PQ–3837-sonli qarori talablari asosida tashkil etib, amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga axborot bersin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi doimiy ravishda korrupsiyaga oid jinoyatlar oqibatida davlat manfaatlariga yetkazilgan zararni aybdor shaxslardan undirish choralari ko‘rsin.

6. Tashqi ishlar vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan birgalikda har oyda Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro reytinglarda mamlakatimiz o‘rnini yaxshilash hamda olib borilayotgan islohotlar to‘g‘risida reyting tashkilotlari, xorijiy ekspertlar va xalqaro hamjamiyatni xabardor qilish maqsadida xorijiy davlatlar ommaviy axborot vositalarida O‘zbekistondagi aksilkorrupsiya islohotlari to‘g‘risida ma’lumotlar chop etilishini ta’minlasin.

7. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi Bosh prokuratura, Oliy sud, Sudyalar oliy kengashi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi va barcha mas’ul idoralar bilan birgalikda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tarmog‘ining Istanbul harakatlar rejasi doirasida O‘zbekistonning 5-raund monitoring yakunlari bo‘yicha ishlab chiqilgan va Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi tomonidan tasdiqlangan “yo‘l xaritasi” ijrosini o‘z vaqtida ta’minlasin hamda 5-raund 2-bosqich monitoringini 2026-yilgacha o‘tkazish choralari ko‘rsin.

8. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi:

ta’lim muassasasi tarbiyalanuvchilari, o‘quvchilari va talabalari uchun ishlab chiqilgan kurslar samaradorligi, natijadorligini baholovchi mezonlar asosida uslubiyot ishlab chiqib, amaliyotga joriy etsin. Bunda mazkur o‘quv kurslari aholi va yoshlar uchun foydali bo‘layotganligi bo‘yicha so‘rovnomalar o‘tkazib, ularning o‘quv kurslaridan qoniqish hosil qilish darajasini inobatga olsin;

ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan o‘quv dasturi uchun ishlab chiqilgan kurslar, uni takomillashtirish bo‘yicha o‘qituvchilar, o‘quvchilar fikrini olish tizimini yo‘lga qo‘ysin hamda mazkur fikrlar asosida o‘quv kurslarini muntazam takomillashtirsin.

9. Mas’ul vazirlik va idoralar hamda viloyat hokimliklari ushbu Qarorning ijro etilishi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga belgilangan muddatlarda axborot taqdim etsin.

10. Mazkur Qaror ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining raisi A. Eshmuratov zimmasiga yuklansin.

11. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Senatining Raisi**



T. Narbayeva

Toshkent shahri,
2025-yil 5-sentabr,
SQ-183–V-sonli.